

O'zbekiston Respublikasi
Farg'ona viloyati
Beshariq tumani
«Obodonlashtirish» boshqarmasi



Ўзбекистон Республикаси
Фарғона вилояти
Бешариқ тумани
«Ободонлаштириш» бошқармаси

Beshariq tumani H/R:23402000300100001010, SH/R: 10002286030215706520011000 Markaziy
bank Toshkent XKKM, MFO 00014, INN 206994051.

28«11»2022 yil.

334-11-153-OB/2022-son

MAXSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

Ushbu shartnoma «Buyurtmachi» deb ataluvchi Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i N. Nasipov bir tomondan va «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «SHERXON INVEST QURILISH ONE» MCHJ va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari SH.Muxammedov ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

I. SHARTNOMANING MAVZUSI

1.1. «Yetkazib beruvchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi»ning talablaridan kelib chiqib, «Fargona viloyati Beshariq tumani Eshon MFY xududida 1 dona ($Q \geq 10\text{m}^3$, $H \geq 50\text{m}$, $N = 3\text{kVt}$) tipidagi chuqurlik nasosi yetkazib beradi.

II. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan maxsulotlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imglar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda)ga asosan joriy narxlarda shartnomaning umumiy narxi **14 970 000 (O'n to'rt million to'qqiz yuz yetmish ming) QQSli** so'mni tashkil etadi.

2.2. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 15 bank ish kunida «Buyurtmachi» yetkazib beriladigan asosiy vositalar umumiy qiymatining 30 foizini oldindan ya'ni, avans tariqasida «yetkazib beruvchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Asosiy vositalar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, «yetkazib beruvchi» tomonidan topshirilgan xisob-varaq fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «Yetkazib beruvchi»ning majburiyatlari

Shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib beriladigan asosiy vositalar «Buyurtmachi»dan xisob-varaq fakturaga asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan to'lovlar jadvaliga muvofiq avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida asosiy vositalarni yetkazib berishga kirishadi.

Barcha ishlarni buyurtmachi talablariga muvofik, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va 30 kun muddatda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Yetkazib beruvchi»ning xuquqlari

Maxsulot uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;

Maxsulotni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari

Tasdiqlangan talablar bo'yicha maxsulotlarni qabul qilib olish;

Sotib olingan maxsulotlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning xuquqlari

«Yetkazib beruvchi»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Yetkazib beruvchi»dan shartnomada kursatilgan maxsulotlarni qabul qilish komissiyasi ishtirokida sifatini kurib olish;

«Yetkazib beruvchi» tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Yetkazib beruvchi» maxsulotni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Yetkazib beruvchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida «Yetkazib beruvchi» jarima to'laydi.

4.4. Yetkazib berilgan maxsulotlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4

%i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

V. FORS MAJOR XOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. SHartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, «31» dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

7.2. SHartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham xuquqiy jixatdan teng kuchli hisoblanadi.

VIII.KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

Tomonlar:

8.1.Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti harakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

8.2.Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari

boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

8.3. Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

IX. TOMONLARNING REKVIZITLARI

“Yetkazib beruvchi”

«SHERXON INVEST QURILISH ONE» MCHJ

Beshariq tumani Sobirtepa qishlog'i

x/r 20208000105271363001

INN 307679454 MFO 00797

OKOD

Xalq banki Beshariq tumani filiali



SH. Muxammedov

“Buyurtmachi”

Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi

Beshariq shahri Oltin Vodiy ko'chasi №114 uy

x/r 100022860302157065200110004

INN 206994051 MFO 00014

OKOD 70210

Markaziy bank Toshkent XKKMM

Raxbar : _____ N. Nasipov

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH
	Imzolangan sana	28.11.2022 16:21
	Hujjat kodi	PW0763845214
	Hulosa kodi	YB8636160732

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA HUQUQIY XULOSA

YB8636160732

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Mahsulot etkazdirib berish to'g'risida**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: BESHARIQ
TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan 24.11.2022 yilda
kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

Beshariq tumani
yuridik markazi
markaz rahbari:



A.G'NURMATOV

28.11.2022